

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Ibragimov Murodjon

“Sotsiologiya” kafedrası o‘qituvchisi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
e-mail: ibragimovmurod1994@gmail.com

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473385>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif jamiyat taraqqiyotida yoshlarning kommunikativ faoliyatini takomillashtirishda PR ning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etgan. Yoshlarni jamiyat taraqqiyotida juda ham ahamiyatli ekanliklarini, ularning ijtimoiy faolligini o‘zgartirishga nisbatan olimlarning fikrlarini o‘rganib, barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va bu borada yoshlar tashkilotlari faoliyati samaradorligi asosida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yanada kengroq jalb qilish, ularning islohotlardagi faolligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kun yoshlarining jamiyat hayotida yoshlar faoliyatida ularning kommunikativligini yangi bosqichga olib chiqqan holda ijtimoiy faollik va kommunikativlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil etgan. Ularning bir-biri bilan bog‘lovchi alohida jihatlarini ko‘rsatib asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: kommunikativlik, globallashtirish, yoshlarga oid davlat siyosati, tilshunoslik kommunikatsiyasi, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, yoshlar siyosat subyekti, ta‘sis hujjatlari, davlat yoshlar huquqi, yoshlar bandligi.

Ибрагимов Муроджон

Преподаватель кафедры «Социология»
Национальный университет Узбекистана
e-mail: ibragimovmurod1994@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ PR В ПОВЫШЕНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор проанализировал значение PR в повышении коммуникативной активности молодежи в развитии общества с теоретической и практической точки зрения. Были изучены мнения ученых относительно того, что молодежь играет очень важную роль в развитии общества, изменении ее социальной активности, создании необходимых условий для воспитания зрелого поколения, обеспечении интересов и потребностей молодежи. Отмечено, что на основе эффективности деятельности молодежных организаций, политической и общественной деятельности молодежи особое внимание уделяется более широкому вовлечению в процессы, обеспечению ее активности в реформах. анализируется связь

социальной активности и коммуникативности, коммуникативность выводится на новый уровень в социальной жизни современной молодежи.

Ключевые слова: коммуникативность, глобализация, государственная молодежная политика, языковая коммуникация, правосознание, правовая грамотность, субъект молодежной политики, учредительные документы, государственные права молодежи, занятость молодежи.

Ibragimov Murodjon

Teacher of the "Sociology" department
National University of Uzbekistan
e-mail: ibragimovmurod1994@gmail.com

THE IMPORTANCE OF PR IN IMPROVING THE COMMUNICATIVE ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

ABSTRACT

In this article, the author analyzed the importance of PR in improving the communicative activity of young people in the development of society from a theoretical and practical point of view. The opinions of scientists were studied regarding the fact that youth play a very important role in the development of society, changing its social activity, creating the necessary conditions for raising the mature generation, and ensuring the interests and needs of youth. It is noted that, based on the effectiveness of youth organizations, political and social activities of young people, special attention is paid to wider involvement in processes and ensuring their activity in reforms. The connection between social activity and communication is analyzed, communication is being taken to a new level in the social life of modern youth.

Key words: communicativeness, globalization, state youth policy, Linguistic communication, legal awareness, legal literacy, youth policy subject, founding documents, state youth rights, youth employment.

KIRISH

Dunyoda yoshlarning jamiyatdagi oʻrni, yangilanishlar sharoitida yoshlar siyosati va yoshlarning oʻzaro kommunikativ faoliyatini tashkil etishga dolzarb masala sifatida eʼtibor qaratilmoqda. Yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy boʻlgan qonuniyatning mavjudligi yaʼni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanmoqda.

Yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, maʼnan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatleri butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan sotsiologik asoslarga koʻra jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari Public relations (bundan keyin PR deb yuritiladi) vositasida yoshlarni birlashtirish, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalashga ehtiyoj sezilmoqda. Jahonda yetakchi sotsiologik ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida yoshlarning zamonaviy qiyofasi va yoshlar tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularda jamoatchilik bilan aloqalarni shakllantirish boʻyicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, AQSHning Purdue universiteti faoliyatida, «Yoshlar ijtimoiy tadqiqotlar markazida» PR texnologiyalarning yoshlarga taʼsiri, tarixiy jarayonlar, hozirgi kun bilan bogʻliqligi va yosh avlodning PR texnologiyalarga munosabatini oʻrganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

METODOLOGIYA

Kommunikatsiyada muloqot muammosiga ilmiy qiziqishlar allaqachon paydo boʻlgan. XIX asrda Ogyust Kont kommunikatsiyaning muhim shakli muloqotni muammo sifatida fanda muomalaga kiritgan. Uning fikricha, muloqot odamlarning oʻzaro harakatining shakli «psixologik hujum»dir, bu bilan u muloqotning ijtimoiy va fiziologik jihatlariga eʼtibor qaratgan[1]. L. Feerbax muloqotni inson individulligining muhim omili sifatida «Insoniyatning mavjudligi faqat inson bilan

inson birgalikdagi muloqotida» [2], deb ta'kidlagan. Binobarin, til har doim odamlarning muloqotga ehtiyojini qondiradi.

ASOSIY QISM

Yoshlar tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishni global voqelik sifatida o'rganish, milliy taraqqiyot ko'rsatkichi mezoni sifatida ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini aniqlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy PR texnologiyalarni muhim voqelik sifatida tadqiq etish, jamiyat taraqqiyot indeksleri, rivojlanish istiqbollari belgilab olish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Ertangi kunimiz egalari – yoshlarni mas'uliyatli, har bir amalga oshirgan bunyodkorlik faoliyati kelajak strategiya uchun muhim platforma ekanligini mohiyatan tushungan kreativ, intellektual inson qilib tarbiyalash barchamiz uchun axloqiy burchdir. Chunki yoshlar ongiga milliylik, ma'rifat, milliy mafkura, imon-e'tiqod, vatanparvarlik tuyg'ularini tafakkuriga shuqur singdirganimizdagina ko'zlagan maqsadimizga etamiz. Buning eng muhim va murakkab jihati ma'naviy tafakkur, axloqiy ong va xulq-odob bilan bog'liqdir. Yoshlar xuddi niholga o'xshaydi, ularning kelajakda qanday bo'lishi jamiyat ma'naviy-ma'rifiy muhitiga bog'liq. Hozir eng dolzarb vazifa sog'lom, ma'naviy barkamol, siyosiy yetuk, huquqiy teran, xalq-millat udum-an'alariga sodiq, Vatan barqarorligini ta'minlashga qodir, yurtparvar, mehnatsevar, jasoratli va shijoatli, irodali yoshlarni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada yoshlar tashkilotlari faoliyati samaradorligi asosida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yanada kengroq jalb qilish, ularning islohotlardagi faolligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur islohotlarning yanada samarali natijalar berishi yoshlarimizning har tomonlama kamol topishi, zamonaviy madaniyat tendensiyalarida shakllanishi va tarbiya topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Yoshlarimizning madaniyatli shaxs sifatida shakllanishi ularning Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va xalqi oldidagi mas'uliyatini qanchalik his etishlariga bog'liq. Yoshlarning faol ijtimoiy qatlamga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab har yili yoshlarga mo'ljallangan badiiy asarlar mualliflarini rag'batlantirish maqsadida «Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob» tanlovi, «Biznesga birinchi qadam» startap g'oyalari tanlovlarini tashkil etish, Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida «Respublika yoshlar ovozi» festivali, «Imkon» loyihasi o'tkazilishi yoshlarning madaniy qiyofasiga ijobiy ta'sir etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi» [4] qarorlari va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Globallashuv ommaviy madaniyatning paydo bo'lishiga va ommaviy axborot vositalarining tarqalishiga ta'sir etmoqda, ular zamonaviy ijtimoiy-madaniy haqiqatni va natijada lingvistik aloqani sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ommaviy kommunikatsiya vositalarini rivojlantirish va tarqatish televideniye, radioeshittirish, kinoteatrlar, kompyuterlar, audio va vizual vositalar va reklama, global axborot tarmoqlari – jamiyat hayotini tubdan o'zgartirdi, axborotni tovarga aylantirdi va jamoat, davlat va xalqaro rivojlanishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylandi.

Ayni paytda, axborotning moddiy tashuvchisi, uning signali til muhim omil sifatida o'zining maqomini saqlab qolmoqda. Axborot vaziyatni tushunish imkonini beruvchi umumiy signaldir, buning natijasida odamlar uni o'z faoliyatida anglashi, saqlashi, uzatishi, ishlatishi mumkin. Axborotning o'zaro ta'siri, ya'ni haqiqatning turli xil obyektlari va jarayonlari to'g'risida doimiy ravishda xabarlar, ma'lumotlar almashinuvi bugungi kunda jamiyat, hayot va inson taraqqiyotining o'zgarishi va rivojlanishining ajralmas shartidir. Shuningdek, jamiyatni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish jarayonlari lingvistik aloqada ham aks etadi. Unda demokratlashtirish, liberallashtirish, multikulturalizm va axborotlilik kabi o'zgarish jarayonlari namoyon bo'ladi.

Globalashuv va axborot makonida tilshunoslik kommunikatsiyasi eng barqaror boshqaruv vositasi va jamoa ongining tashuvchisidir. Shuning uchun unga jamiyatda fundamental va strategik e'tibor berilishi lozim. U odamlarning murakkab, boy va xilma-xil ijtimoiy faoliyatini aks ettirishga qodir bo'lgan, ushbu faoliyatga mos bo'lishi kerak – ijtimoiy hayotning barcha sohalariga xizmat qilishi, mazmunli, harakatchan va aniq bo'lishi maqsadga muvofiq.

Tilshunoslik kommunikatsiyasi – turli xil og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalaridan foydalangan holda, shaxslararo, jamoat, madaniyatlararo va ommaviy aloqada ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishning ijtimoiy shartli jarayonidir. Til aloqasining boshqa aloqa tizimlari bilan taqqoslaganda o'ziga xos xususiyati uning egiluvchanligi va ko'p qirraligidir. Tilshunoslik to'g'ri va teskari aloqa qilish imkoniyatini yaratadi, bir tomonlama aloqani to'g'ridan-to'g'ri muloqotga aylantiradi. Bizning his-tuyg'ularimizni ifoda etishga, turli davrlar haqida gaplashishga, masofalarni bosib o'tishga va virtual obyektlarning xususiyatlarini etkazishga imkon beradi.

Darhaqiqat, aloqa – bu asosan og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari yordamida amalga oshiriladigan, ularning bilim, mehnat va ijodiy faoliyatining turli sohalarida odamlar o'rtasida fikr va his-tuyg'ular almashishining ijtimoiy shartli jarayonidir. Muloqotni shaxslararo aloqalardan o'tmasdan amalga oshirish mumkin emas [5]. Bizningcha, muloqot – kommunikativ xatti-harakatlar sifatida o'ziga nisbatan tashqi maqsadni anglatmaydi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida ma'noga ega bo'ladi. Biroq, muloqotdan farqli o'laroq, aloqa nafaqat axborot, balki odamlar o'rtasidagi shaxsiy-mavjudlik aloqasini ham nazarda tutadi. Bu esa, aloqa tizimidagi axborot oqimlarining chiziqli bo'lmagan harakatlanishini va hamjamiyat sifatida aloqa subyektlarini tashkil etuvchi shaxsan muhim ma'lumotlarning o'sishini ta'minlaydi. Aloqa va lisoniy bo'lmagan aloqa o'rtasidagi tub farq ularning o'ziga xos o'zini-o'zi anglash usullarining farqida aniqlanadi. Xabarning tuzilishi monologik, aloqa tuzilishi esa, lisoniy aloqa tuzilishi singari dialogik xarakterga ega. Uning vositalari muloqotning dialogik yoki interaktiv shaklini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy til aloqasi tubdan yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Jamiyatning axborotlashuvi va globalashuvi bilan bog'liq ravishda lingvistik aloqa turlari o'zgaradi va globalashadi, til shakllari tizimi yangilanadi. Ushbu bosqichda lisoniy aloqasi odamlarni og'zaki shaklidan ko'ra jadal rivojlanmoqda, uning funksiyalari kengaymoqda. Jamoat va ommaviy aloqa (televideniye, radio, kompyuterlar, mitinglar, yig'ilishlar) unga aholining yangi qatlamlarini jalb qilishga imkon bermoqda. Ushbu ikkala tur ham haqiqatni ikki baravar ko'paytiradi, go'yo ramziy, virtual haqiqatni yaratadi, bu nafaqat hayot haqiqatini aks ettiradi, balki ko'p jihatdan uning o'rnini bosadi.


Darhaqiqat, jamoat aloqasi – bu intellektual xarakterdagi nutq hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ommaviy aloqa minglab va hatto millionlab tomoshabinlarga ta'sir qiladi. Ta'sir ko'lami tufayli u siyosiy, diniy, milliy xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Ommaviy aloqada nafaqat janrlar va uslublarning aralashmasi, ma'nolarining soddaligi, balki tushunishni rad etadigan bema'nilik, bema'niliklarning salbiy va turli xil shakllari mavjud. Ushbu ma'nolarning murakkabligi, ularning yo'qolishi bugungi kunda nafaqat muhr bilan balki, hayolan taqqoslanadi. Bu iste'molchiga o'z vaqtida ma'lumotni tan olish zarurligini anglatadi [6].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rus tadqiqotchilari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev shaxslararo kommunikatsiya nazariyasining asosini nutqiy faoliyat tashkil etishini asoslaganlar. Chunki, nutqiy kommunikatsiyaning asosini motiv va maqsad tashkil etadi. Motiv – kommunikativ faoliyatiga taalluqli bo'lsa, maqsad doim anglangan, anglanayotgan va anglanmagan jarayonlarga tegishli bo'lishi ham mumkin. Shaxslararo kommunikatsiyada shaxsning u yoki bu voqelik yuzasidan nuqtai nazari, fikrlari, ijtimoiy ko'rsatmalar o'zgarib turadi. O'zlariga tegishli muhim axborotni olgandan keyin ularni tekshirib ko'radi va uning natijalari biror-bir obyekt haqidagi shaxsiy fikrni o'zgartirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning o'ziga xosligi ijtimoiy guruhlar kommunikatsiyasida o'z ifodasini topadi. Jamiyatda odamlar qarashlari, yoshi, maqsad va intilishlari, faoliyat turlarining yo'nalishlariga qarab muayyan ijtimoiy guruhlariga bo'linadi. Odamlarning bunday birikishi guruh emas, balki ijtimoiy guruh deb ataladi. Chunki bu guruhlar jamiyatning ichida mavjud bo'lib, jamiyat hayotining muayyan ko'rinishini o'zida aks ettiradi.

Demak, ijtimoiy guruhlar kommunikatsiyasida ishtirok etadigan subyektlar o‘zlarining potentsial imkoniyatlaridan kelib chiqib muhokamada ishtirok etadilar, shaxsiy fikrlarini bildira oladilar.


Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga jalb etilishi, yoshlarda shubhasiz ravishda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Jamiyatning yangi ijtimoiy munosabatlarga o‘tishi ko‘p jihatdan yoshlar harakatining qanday va qay darajada qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq [7]. Zero, faqat ma‘naviy sog‘lom va ijtimoiy jihatdan mobil avlodgina O‘zbekistonda milliy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz jarayonini ta‘minlashi mumkin.

Yoshlar orasida boqimandalik, jamiyatdan begonalashuv, islohotlarga beparvolik kabi holatlar dunyo bo‘ylab ommalashib borayotgani hech kimga sir emas. Mana shunday vaziyatlarda jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sizni qanchalik qiziqtiradi mazmunidagi savol bilan yuzlandik, shunda “Albatta men uchun qiziq, chunki bevosita shu jamiyat a‘zosiman” degan javob varianti – 59,7% respondentda, “Ha qaysidir ma‘noda meni qiziqtiradi” degan javob varianti esa 28,0% respondentda, “Menga u qadar qiziq emas, sababi bizning fikr-mulohazalarimiz hech kimga qiziq emas” degan javoblar bo‘lsa 3,6% respondent fikrida o‘z ifodasini topgan. Qolgan 7% respondentning 3,4%i “To‘g‘risini aytsam, meni umuman qiziqtirmaydi, degan va 3,5%i “Men o‘z dunyomni bu tushunchalar bilan bog‘lamayman” degan fikrlarni bildirgan. Oxirgi 1% respondent “Javob berishga qiynalaman” deb qo‘ya qolgan natijalarni ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga yoshlarning qiziqish darajasi

Jamiyatimiz yoshlarining juda katta qismi bugungi texnika taraqqiyoti davrida o‘zlarining faolliklari bilan ajralib turibdilar. Ijtimoiy tarmoqlarda faollik, axborot olishning eng intensiv yo‘llaridan foydalanish bugungi kunning ajralmas qismiga aylanib bo‘lgani hech kimga sir emas. O‘tkazilgan tadqiqot davomida yoshlarning jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari PR bo‘yicha ma‘lumotga egalik darajasini bilishga qaratilgan savol bilan yuzlandik va taqqoslash uchun quyida rasm shaklda taqdim etildi.



2 – rasm. PR(Puplic relations) haqida ma‘lumotga egalik darajasini aniqlash

Respondentlarga “Marhamat qilib aytingchi, siz PR (Public relations) haqida o‘zingizni yetarli ma’lumotga egaman” deb hisoblaysizmi qabilidagi savol bilan yuzlandik va turli fikr va mulohazalarga guvoh bo‘ldik. Respondentlarimizning 48,9% qismi “ha albatta chunki zamonaviy hayotni PR siz tasavvur qilish qiyin” degan fikrga to‘xtalishdi. O‘z navbatida “Biroz ma’lumotga egaman” deb hisoblaydiganlar ham ko‘pchilikini tashkil etib, ular 36,8% qismni tashkil etmoqdalar. “Yo‘q, men mutlaqo bu tushuncha haqida ma’lumotga ega emasman” deb hisoblovchilar ham mavjud bo‘lib ular 8,7% ni tashkil etishmoqda. Umuman olganda, PR haqida ma’lumot olish va undan foydalanish menga qiziq emas deb fikr bildiruvchi respondentlarimiz ham mavjud bo‘lib ular 3,9% ni, boshqa fikr bildirgan respondentlarimiz esa 1,7% ni tashkil etmoqda (2-rasm).

Ko‘rinib turibdiki, tadqiqot natijasiga ko‘ra qariyb yoshlarning 13% qismi PR texnologiyalar haqida ma’lumotga ega emasliklarini ta’kidladilar. Albatta yuqorida ta’kidlaganimzdek, zamonaviy jamiyatlarda jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari ijtimoiy hayotning ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga birlamchi axborotni yetkazishda xolislik va noxolislik masalalarida ko‘plab muammolarga duch kelinayotgani e’tiborga molik masala hisoblanadi. Bunga misol tariqasida asossiz ravishda omma oldiga tashlanayotgan turli masalalar, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlaridagi turli jihatlarni axborot makoniga ijtimoiy tarmoqlar orqali olib chiqish holatlari tobora ortib bormoqda. Bu orqali shaxslarni qadirsizlanishiga, davlat va jamiyat ishlarida faoliyat olib boruvchi mas’ullarni sun’iy obro‘sizlantirishga sabab bo‘luvchi turli holatlar ham ko‘payib borishi sotsiologni o‘ylantiradigan masala hisoblanadi. O‘z navbatida boshqaruv sohasida bo‘ladimi, jamiyatdagi ko‘plab bo‘g‘inlarida shaffoflikni ta’minlashda PR ning o‘rni beqiyos. Faqatgina ma’lumotlarning haqiqiylikini tekshirish va noto‘g‘ri talqin etish holatlarni asoslashda yoshlarda umuman olganda aholining katta qismida tushunchalari va sohaga oid bilimlar yetishmasligi namoyon bo‘lmoqda.

XULOSA

Ta’kidlash joizki ijtimoiy tarmoqlar insonning o‘z-o‘zini namoyon etishi uchun yangi imkoniyatlar olib keldi. Hamda unga yangi kommunikatsion imkoniyatlar berdi. Bu bilan aytish mumkinki, internet inson mohiyatini tubdan o‘zgartiradi. Til va kommunikatsiya vositalari muloqotning dialog yoki interaktiv shaklini ta’minlaydi. Shunday qilib, aloqa odamlar o‘rtasidagi madaniy, tarixiy jihatdan shartli ma’naviy aloqaning o‘ziga xos shaklidir. Axborot tashuvchisi sifatida aloqa vositalari, o‘z navbatida, odamlar hayotining madaniy-tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga, odamlarning o‘zlari ishlab chiqarish darajasi va rivojlanish darajasiga bog‘liq. PR texnologiyalarining jamiyat siyosiy madaniyati bilan aloqasi va ushbu texnologiyalarning bunday madaniyat shakllanishidagi o‘rni alohida e’tiborga sazovor sohadir. Siyosiy madaniyat shakllanishida PR texnologiyalarining amal qilish mexanizmlari alohida rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Конт О. Общий обзор позитивизма. Пер. с фр. Серия: Из наследия мировой философской мысли: история философии Изд.4, стереотип. – ЛЕНАНД, 2019. – 296 с.
2. Фейербах Людвиг Андреас. Стремление к счастью. Серия: Философия на пальцах. – М.: АСТ, 2020. – 320 с.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» farmoni [<https://lex.uz/docs/3107036>]
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi» farmoni <https://lex.uz/docs/3107036>
5. Настройка языка: управление коммуникациями на постсоветском пространстве. / Под ред., с предисл. Лапиной-Кратасюк Е.Г. / Серия: «Научное приложение. СЛИИИ» – М.: Новое литературное обозрение, 2016. – 448 с.
6. Куликова Л.В. Коммуникация. Стиль. Интеркультура. Прагмалингвистические и культурно-антропологические подходы к межкультурному общению Сибирский федеральный университет СФУ. – 2011. – 268 с.

7. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat rivojlanishining omili sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – С. 521
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9ZnrKMAAAAJ&citation_for_view=9ZnrKMAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000